

Maqola nomi: GENDER SIYOSATI VA SOVET PARADOKSI: NA MUSTAMLAKA VA NA ZAMONAVIYMI?

Asl maqola nomi: The politics of gender and the Soviet paradox: neither colonized, nor modern?

Muallif: Deniz Kandiyoti

Manba: The politics of gender and the Soviet paradox: neither colonized, nor modern?, Central Asian Survey, 26:4, 601-623

Nashriyot: Feminist Studies, Inc.

Doimiy havola: <https://doi.org/10.1080/02634930802018521>

Mazkur maqola Deniz Kandiyoti ruxsati bilan o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Ushbu ruxsat uchun samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Tarjima O'zbekistonda gender zo'ravonligiga qarshi kurashga qaratilgan mustaqil media-loyiha **Nemolchi.uz** tashabbusi doirasida amalga oshirildi. Ushbu loyiha jamiyatda strukturaviy zo'ravonlik, ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari haqidagi bilimlarni keng jamoatchilikka, shu jumladan, o'zbek tilida ham yetkazishni maqsad qilgan.

Tarjimon: Nodira Ibrohimova

Tarjima sanasi: 2026-yil

Tarjima Shveytsariyaning O'zbekistondagi Elchixonasi ko'magida tayyorlangan.

Tarjimadan foydalanish shartlari:

Mazkur tarjimani erkin o'qish, ta'limiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish mumkin, biroq bunda asl manba va asl nashrga havola ko'rsatilishi shart. Tarjimonning ismi va **Nemolchi.uz** loyihasi ko'rsatilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Gender siyosati va Sovet paradoksi: na mustamlaka va na zamonaviymi?

DENIZ KANDIYOTI

London

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola Markaziy Osiyodagi ayollar ozodligi bo'yicha Sovet siyosatini mustamlaka hukmronligi ko'rinishi sifatida, inqilobiy davlatning modernizatsiya sari intilishlari sifatida yoki har ikkasining uyg'unligi sifatida talqin qiluvchi ilmiy munozaralarni ko'rib chiqadi va ularni Sovet paradoksining gender oqibatlarini e'tibordan chetda qoldirganlikda tanqid qiladi. Bu paradoks ayollarning jamoat sohasidagi (ta'lim, mehnat va siyosiy vakillik orqali) ishtirokini qo'llab-quvvatlagan va qonuniylashtirgan sotsialistik paternalizmning, zamonaviylik bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy o'zgarish jarayonlarini amalda to'xtatib qo'ygan buyruqbozlik iqtisodiyoti va millatlar siyosati bilan birlashgan hamda ziddiyatli harakatlarida namoyon bo'ladi.

Post-sovet gender mafkuralari Sovet siyosati tomonidan uzilib qolgan milliy an'analarga shunchaki qaytishni anglatmaydi, balki yangi mafkuraviy maqsadlar yo'lida madaniy o'ziga xoslik tushunchalarini strategik qayta qo'llashni tashkil etadi. Shu tariqa, gender siyosati ham Sovet o'tmishidan uzilishni ko'rsatishda, ham tobora bo'linib borayotgan post-sovet jamiyatlarida ijtimoiy birdamlikni kuchaytiruvchi millatning yangi tasavvurlarini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Islomning milliy o'zlikning markaziy tamoyili sifatida rasman tasdiqlanishi va bir vaqtning o'zida uning radikal ko'rinishlarining rad etilishi va nazorat qilinishi genderni siyosiylashtirishga yanada hissa qo'shadi. Shu bilan birga, xalqaro donorlar hamjamiyati tomonidan gender tengligining targ'ib qilinishi, ayollarning fuqarolikka oid oldingi da'volarining o'zagi – davlat tomonidan beriladigan farovonlik imtiyozlari va ijtimoiy himoya – butunlay yemirilgan sharoitda cheklangan ishonchga ega.

Kirish

Gender siyosati – bu o'rinda davlat, nodavlat va global aktorlar tomonidan gender munosabatlari va ayollar huquqlari bo'yicha pozitsiyalarni o'zlashtirish, bahslashish va qayta talqin qilish jarayonlari sifatida ta'riflanadi – har doim o'ziga xos kontekstual yo'llar bilan namoyon bo'ladi. Musulmon olamida Islom va

zamonaviylik atrofidagi bahslar ushbu jarayonlarning markazida bo'lib kelgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollar masalasining paydo bo'lishi G'arb bilan to'qnashuvlarning – xoh to'g'ridan-to'g'ri mustamlaka hukmronligi (Jazoir yoki Misrdagi kabi), xoh G'arb davlatlarining ta'sir doirasi kengayishi (Usmonli imperiyasi va Erondagi kabi) orqali bo'lsin – ta'siri ostida kechdi. Ijtimoiy islohotchilar va ularning konservativ tanqidchilari o'rtasidagi bahslarning markazida Islomning zamonaviylik bilan mutanosibligi masalasi yotardi va bu tashvish jamiyatning raqobatlashuvchi qarashlarini siyosiy ifodalashda markaziy o'rin egalladi. Ta'lim, ro'mol o'rash va ko'pxotinlilik masalalarini qamrab olgan ayollar huquqlari masalasi taraqqiyot va ijtimoiy islohotlar haqidagi ushbu kengroq kun tartibining ajralmas qismiga aylandi.

Biroq Birinchi jahon urushidan keyingi millat qurilishi traektoriyalari musulmonlar ko'pchilikni tashkil etuvchi mamlakatlarni turli yo'nalishlarga boshladi. Usmonli imperiyasining qulashi va Rossiya imperiyasida bolsheviklarning g'alabasi ayollar ozodligi uchun XX asrning qolgan qismida barqaror meros qoldiradigan ikkita yetakchi modelni yuzaga keltirdi: bular millatchilik va sotsializm edi. Yaqin Sharq va Janubiy Osiyodagi post-kolonial millatchilik va feminizm bo'yicha katta hajmdagi ishlarga nisbatan sotsializm ostidagi musulmon aholining traektoriyalari va xususan, gender sohasidagi o'zgarishlar nisbatan o'rganilmagan va nazariy jihatdan kam yoritilganligicha qolmoqda. Holbuki, musulmon ayollarining ozod qilinishi Sovet tarixida uning e'tiborga molik yutuqlaridan biri sifatida muhim o'rin tutadi.

Ushbu maqola bir qator ko'zga tashlanadigan ziddiyatlarni tahlil qilishga urinadi. Sovet modernizatsiyasi borasidagi da'volarni inobatga olgan holda, gender tengligiga oid Sovet davri bayonotlari va siyosatining post-sovet davlatlarida konservativ gender mafkuralari tomonidan naqadar tez va nisbatan osonlik bilan siqib chiqarilganini qanday izohlash mumkin? Gender tenglik g'oyalarini himoya qilishga sodiq mahalliy qatlamlarning (erkaklar yoki ayollar) yo'qligi yoki nisbatan kuchsizligini qanday talqin qilishimiz kerak? Post-sovet Markaziy Osiyosida gender siyosatini shakllantirishda davom etayotgan mahalliy va global oqimlarni qanday tushunishimiz lozim?

Javoblarni izlash, shubhasiz, Sovet merosini qayta baholashdan boshlanishi shart. Maqolaning birinchi qismida men Markaziy Osiyodagi Sovet aralashuvining mohiyati, xususan, ayollar ozodligiga qaratilgan siyosat yuzasidan ilmiy munozaralarni ko'rib chiqaman. Ushbu aralashuvlar mustamlaka hukmronligi namunalari sifatida inqilobiy davlatning modernizatsiya sari intilishlari sifatida yoki har ikkasining turli uyg'unliklari sifatida talqin qilinishidan qat'i nazar, bu qarashlarda ko'pincha Sovet modernizatsiyasining mohiyati va uning gender oqibatlari bilan bog'liq kuchli sotsiologik tahlil yetishmaydi. Bu esa, mening fikrimcha, Sovet paradoksi deb ataydigan tushunchani anglashimizni cheklaydi. Bu paradoks ayollarning jamoat sohasidagi (ta'lim, mehnat va siyosiy vakillik orqali) ishtirokini qo'llab-quvvatlagan va qonuniylashtirgan sotsialistik paternalizmning, zamonaviylik bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy o'zgarish jarayonlarini amalda

to'xtatib qo'ygan buyruqbozlik iqtisodiyoti va millatlar siyosati bilan birlashgan hamda ziddiyatli harakatlarida namoyon bo'ladi.

Ushbu da'voga asoslanib, maqolaning ikkinchi qismida shuni ilgari suramanki, an'anaviy gender ierarxiyalarini targ'ib qiluvchi va erkaklar imtiyozining rasman tiklanishini qo'llab-quvvatlovchi post-sovet gender mafkuralari hozirda mustamlaka deb qayta baholanayotgan Sovet tuzumi tomonidan to'xtatib qo'yilgan sof milliy an'analarga qaytishni emas, balki yangi mafkuraviy maqsadlar yo'lida madaniy o'ziga xoslik tushunchalaridan strategik foydalanishni anglatadi. Bu maqsadlar Sovet o'tmishidan uzilishni anglatuvchi yangi milliy tasavvurlarni izlash hamda post-sovet jamiyatlarida chuqurlashib borayotgan ijtimoiy parchalanish va tengsizliklarga xalqning roziligini olishga qaratilgan, birdamlikni kuchaytiruvchi diskurslarni shakllantirish atrofida birlashadi.

Milliy o'zlikning markaziy tamoyili sifatida Islomning rasman qo'llab-quvvatlanishi va ayni paytda uning radikal ko'rinishlarining tuzum barqarorligiga tahdid sifatida rad etilishi (va nazorat qilinishi) o'rtasidagi ziddiyatlar erkak va ayol xulq-atvori hamda kiyinishiga yangi ma'nolar yuklash orqali genderni yanada siyosilashtiradi. Xalqaro donorlar hamjamiyati va ular tomonidan moliyalashtiriladigan nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) sektori tomonidan neoliberal bozor islohotlari kun tartibining ilovasi sifatida gender tengligining targ'ib qilinishi cheklangan ishonchga ega, chunki bu ayollarning fuqarolikka oid oldingi da'volarining o'zagi – davlat tomonidan beriladigan farovonlik imtiyozlari va ijtimoiy himoya – butunlay yemirilgan sharoitda yuz bermoqda. Xulosa o'rnida men ushbu vaziyat gender adolati va tengligidan manfaatdor bo'lgan mahalliy qatlamlar ixtiyoridagi ham moddiy, ham diskursiv resurslarni qanday cheklayotgani haqida mulohaza yuritaman.

Sovet paradoksini anglash

Musulmon olamidagi gender va modernizatsiya haqidagi munozaralarning ikkita asosiy tushunchasi bo'lmish mustamlakachilik va g'arblashuv Markaziy Osiyoda murakkab va ziddiyatli traektoriyaga ega bo'ldi. Mintaqa bir vaqtning o'zida ham Rossiya imperiyasining kengayishi natijasida mustamlakaga aylantirildi, ham bolsheviklar g'alabasidan so'ng nokapitalistik metropoliya tomonidan o'rnatilgan nazoratning yangi shakllariga duchor bo'ldi. Biroq, bu o'rinda modernizatsiya to'qnashuvi G'arb va Sharq (qanday ta'riflanishidan qat'i nazar) o'rtasida emas, balki o'zining tarixiy G'arbdagi o'zni borasida ikkilangan, o'zining qoloqligi haqida ko'p mulohaza yurituvchi inqirozga yuz tutgan mustamlakachi kuch hamda turli-tuman tub yerli tuzilmalar o'rtasida kechdi. Oxirgi guruh tarkibiga Movarounnahrning yirik islom markazlari va shahar aholisidan tortib, Islomni nisbatan kechroq qabul qilgan va islomiy amaliyotlarni mahalliy e'tiqod hamda kosmologiyalar bilan uyg'unlashtirgan dashtlarning ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlarigacha kirar edi.

Imperiya tarkibidagi musulmon xalqlarining zamonaviy o'zliklari qisman XVIII asr o'rtalaridan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda Rossiyaning ularning jamiyati va madaniyati haqidagi tasavvurlariga javob berishga urinish jarayonida shakllandi. Ushbu to'qnashuv bir guruh tatar ziyolilarini XIX asr o'rtalarida o'zlik masalasida bahs boshlashga undadi va bu keyinchalik musulmon islohotchiligi (jadidchilik) oqimiga aylandi. Aynan shu islohotchilik oqimi doirasida biz ayollar huquqlarini kengaytirishga bo'lgan ilk chorlovlarni ko'ramiz. Adib Xolidning Markaziy Osiyodagi jadidchilikka oid ishi jadidlarning madaniy islohotlar borasidagi tashabbuslari va musulmon olamining boshqa joylaridagi modernist hamkasblari o'rtasidagi mavzuviy uzviylikni batafsil ko'rsatib beradi. Ko'pxotinlilik amaliyotini tanqid qilish, ayollarga bo'lgan yomon munosabat va ularning ilmsizligi milliy tiklanish va taraqqiyotga qaratilgan islohotlar chaqiriqlarining markaziy mavzulari edi. Jadidlar musulmon ziyolilarining kosmopolit hamjamiyati o'rtasida g'oyalar aylanishi orqali mustahkamlangan umumiy diskursiv olamga ega edilar.

Bolsheviklar g'alabasidan so'ng ayollar ozodligi diskursi Sovet Ittifoqi Kommunistik Partiyasi (SIKP) tomonidan butunlay boshqa maqsadlar yo'lida o'zlashtirildi. An'anaviy oilaviy tuzilmalarni parchalash va qarindoshlik tizimlarini qayta shakllantirish sotsialistik o'zgarishlar va madaniy inqilob yo'lidagi markaziy vositalarga aylandi. Chor rejimi tegmaslikni afzal ko'rgan sohalarga davlat ta'sirini yoygan holda, Sovetlar mahalliy an'analarga asoslangan huquqbuzarliklarni (maishiy jinoyatlar yoki turmush tarziga oid jinoyatlar) jinoiylashtirish va jazolash orqali urf-odatlar sohasiga tajovuzkorona aralashdilar. 1920-yillarga kelib, o'troq aholi orasida amalda bo'lgan shariat sud tizimi va ko'chmanchi hududlarda qo'llaniladigan odat huquqi o'rmini dunyoviy oila huquqi egalladi. Ko'pxotinlilik, voyaga yetmaganlarni nikohlash va majburiy nikoh, shuningdek, qalin to'lash qonundan tashqari deb e'lon qilindi.

Massellning ta'kidlashicha, inqilobiy avangard vazifasini o'tay oladigan tub yerli ishchilar sinfi mavjud bo'lmagan Markaziy Osiyo mintaqasida bu kabi o'zgarishlarni amalga oshirishning eng samarali yo'li – jamiyatning eng ko'p ezilgan va kamsitilgan a'zolarini, ya'ni ayollarni safarbar qilish deb hisoblangan. Ular inqilobiy maqsadlar yo'lida proletariat o'rinbosari sifatida jalb qilinishi lozim edi. 1927-yildan boshlangan va Hujum nomi bilan mashhur bo'lgan paranji tashlash va majburiy desegregatsiya harakati ijtimoiy tarixchilar tomonidan eng ko'p o'rganilgan epizod hisoblanadi. Ayollar yakka tartibda o'z ozodligini e'lon qilib, paranji va chachvonlarini gulxanga otgan paranji yoqish rituallari 1927-yildan 1930-yillargacha har yili Xalqaro xotin-qizlar kunida o'tkazib kelindi va faqat ozod bo'lgan ayollarga qarshi qaratilgan qonli qarshiliklar sababli to'xtatildi.

Ushbu muhim epizodni talqin qilishdagi tafovutlar Sovet modernizatsiyasining mohiyatiga oid ko'plab hal etilmagan masalalardan dalolat beradi. Post-kolonial nazariya doirasida ish olib boruvchi Nortropning ta'kidlashicha, Sovet Ittifoqi ham o'zidan oldingi chor Rossiyasi kabi mustamlakachi imperiya bo'lgan. U paranji atrofidagi mojarolarni, birinchi navbatda, mustamlakachi kuch va bo'ysundirilgan

xalqning qarshiligi hikoyasi sifatida talqin qiladi. Muallif SSSR o'zbeklarni Sovet fuqarolariga aylantirishni maqsad qilgan modernizatsiya qiluvchi davlat bo'lganini tan olsa-da, bu urinishni paradoksial korxona sifatida taqdim etadi. Sovetlar o'zlari uchun hal qilib bo'lmaydigan dilemma yaratdilar: bir tomondan, yangi o'zbek millatini ayollarning jamiyatdan ajratilishi va oilaviy munosabatlarning o'ziga xos shakllari orqali ta'rifladilar, ikkinchi tomondan, aynan shu amaliyotlarni qoloq va zulmkor deb qoraladilar. Muallif fikricha, bir vaqtning o'zida ham o'zbek, ham sovet bo'lishning imkonsizligi gender munosabatlarini o'zgartirishda (kamida qisqa muddatli istiqbolda) mutloq va achinarli muvaffaqiyatsizlikka olib kelgan asosiy ziddiyatdir. Bu yerda chegaralar tub yerli aholi va mustamlakachi o'rtasida aniq chizilgan bo'lib, mahalliy elita yoki turli ijtimoiy qatlamlar orasidagi noaniqlik, ichki xilma-xillik va noroziliklarga juda kam o'rin qoldirilgan.

Bundan farqli o'laroq, Turkmaniston bo'yicha Edgar va O'zbekiston bo'yicha Kamp kabi olimlar ancha murakkabroq manzarani chizadilar. Edgar Massellning "Markaziy Osiyo ayollari proletariat o'rinbosari sifatida ko'rilgan" degan tezisini qo'llab-quvvatlovchi dalillar kamligini ta'kidlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, Sovet rasmiylari tuzumning tayanchi bo'lgan kambag'al va yersiz dehqon erkaklarning patriarxal his-tuyg'ularini ranjitib qo'yishdan qo'rqib, ehtiyotkorlik bilan ish tutishga moyil bo'lganlar. Turkman ayollari paranji o'rashmagan bo'lsa-da, ayollar bo'ysunishining boshqa belgilari – erkaklarning bir tomonlama taloq qilish huquqi, yosh bolalarni nikohlash va qalin to'lash kabi holatlar asosan turkman bo'lmagan "Jenotdel" (Xotin-qizlar bo'limi) faollari tomonidan nishonga olingan. Biroq mahalliy turkman kadrlari ayollar ozodligi borasidagi talablarga qarshi turish uchun sinfiy kurash tilidan ustalik bilan foydalanib, hukumatni ayollarni qo'llab-quvvatlash yoki sinfiy yaqin erkaklar xayrixohligini qozonish o'rtasida tanlov qilishga majbur etganlar. Bu masalada mahalliy kadrlar orasida bo'linishlar bo'lgan, ammo sinfiy siyosat talablari o'rtaga tushganda, ayollar huquqlari himoyachilari chekinishga majbur bo'lganlar. Bu matn Turkmanistonda gender munosabatlarining qabilaviy jamiyatni qayta ishlab chiqishdagi markaziy o'rnini – shuning uchun ham mavjud holatni o'zgartirishga bo'lgan har qanday urinish kuchli ehtirolarga sabab bo'lganini hamda 1920-1930-yillarda millatchilik institutlari va diskursini shakllantirishda mahalliy elitaning faol rolini ko'rsatib beradi.

Kamp ham, xuddi shunday, o'zbeklar orasida o'zlik va zamonaviylik haqida kechgan qizg'in bahslarga e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, o'zbek faollari (erkaklar va ayollar) dunyoqarashini shakllantirgan g'oyalar asosan jadidlarning ayol kishining jamiyatdagi o'rnini haqidagi qarashlari bilan uzviylikni tashkil etgan, garchi keyinchalik bu g'oyalar bolsheviklar kun tartibi ostida qolib ketgan bo'lsa-da. Binobarin, Hujum harakati sabab bo'lgan ommaviy qarshiliklar turlicha talqin qilinadi. Ushbu fojiali voqealarni ruslarga qarshi mustamlakachilikka qarshi qarshilik prizmasi orqali baholagan Nortropdan farqli o'laroq, Kamp o'zbeklarning boshqa o'zbeklarga nisbatan sodir etgan keng ko'lamli qotilliklari, hujumlari va zo'rlashlarini patriarxal kuchning zo'ravonlik bilan qayta tiklanishidan oziqlangan, asosan, ichki kurash deb talqin qiladi.

Edgar mustamlaka siyosatining qiyosiy bahosida shuni ta'kidlaydiki, musulmon o'lkalaridagi G'arb mustamlakachi kuchlari Sovet tuzumidan farqli o'laroq, shaxsiy maqom to'g'risidagi qonunlarning diniy nazoratiga aralashishdan va umuman olganda, bo'ysundirilgan aholini safarbar qilishdan tiyilganlar. Shunday qilib, Sovet modernizatsiyasini faqat bolsheviklar va Markaziy Osiyo musulmonlari o'rtasidagi mustamlakachilik to'qnashuvi prizmasi orqali talqin qilish mahalliy ierarxiyalarni ham shubha ostiga qo'ygan inqilobiy shiddatni e'tibordan chetda qoldiradi. Edgar Sovet modernizatsiyasiga bo'lgan munosabatlarda musulmon olamidagi davlat feminizmi bilan o'xshashliklarni hamda mustamlakachilikka qarshi qarshilik shakllarini ham payqaydi.

E'tiborli jihati shundaki, Sovet modernizatsiyasini imperiya hukmronligining boshqa shakllari bilan tenglashtirish mumkinmi yoki yo'qmi degan masala qizg'in bahslarga sabab bo'lgan bo'lsa-da, modernizatsiya kategoriyasining o'zi yetarli darajada muammolashtirilmadi. Buning o'rniga, urushlararo davrda taraqqiyot yo'lida o'z aholisini misli ko'rilmagan darajada safarbar qilgan boshqa zamondosh Yevropa davlatlari bilan parallellar izlandi. Zero, Sovet Ittifoqining ijtimoiy aralashuv texnologiyalari, ijtimoiy farovonlik siyosati, ommaviy safarbarlik, iqtisodiy konsolidatsiya hamda rejalashtirish va mashina asri utopizmi ham liberal-kapitalistik, ham totalitar ko'rinishdagi Yevropa moderniyati bilan ko'p umumiy jihatlarga ega edi. Biroq bu masala olimlarni chuqur ikkiga bo'lgan: ba'zilar Sovet Ittifoqini G'arb moderniyatining bir ko'rinishi sifatida qabul qilishga qarshi chiqdilar.

Masalan, Martin Sovet Ittifoqiga nisbatan modernizatsiya paradigmasi da'volarini baholashda Sovet milliy siyosatidan test-keys (sinov namunasi) sifatida foydalandi. Uning fikricha, Sovet davlatining milliy masalani hal qilish usuli uni boshqa mustamlakachilik to'qnashuvlaridan ajratib turadi. Ittifoq respublikalaridagi titul millatlarga nisbatan ijobiy kamsitish siyosati bolsheviklarning dekolonizatsiya loyihasining ajralmas qismi edi, chunki imperiya chekkalaridagi madaniy qoloqlik uchun chor mustamlakachilik zulmi (va buyuk rus shovinizmi) javobgar deb hisoblangan. Biroq 1930-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Sovet davlati aholini ma'lum bir etnik (va sinfiy) tamg'alar ostiga qulflab qo'yuvchi qo'pol primordalizm shaklini targ'ib qila boshladi va shu tariqa sinf va millat kabi zamonaviy toifalarni majburiy ijtimoiy maqom to'plamiga aylantirdi.

Ushbu siyosatlar etnik mansublikni hayotiy tanlovlarni belgilovchi eng muhim omilga hamda ijtimoiy safarbarlik va mojarolarning asosiy markaziga aylantirishga olib keldi. Martinning ta'kidlashicha, bu Sovet davrida an'anaviy qadriyatlarining saqlanib qolganligi natijasi emas, balki haddan tashqari Sovet etatizmining (davlatparastligining) kutilmagan oqibati edi. Agar modernizatsiya Sovet niyatlarining nazariyasi bo'lgan bo'lsa, neo-traditsionalizm ularning kutilmagan oqibatlari nazariyasiga aylandi.

Sovet moderniyatiga qaratilgan tanqidiy nigohlarning Markaziy Osiyo jamiyatlariga kamdan-kam yo'naltirilganligi, ehtimol, unchalik hayratlanarli

emasdir. Chor mustamlakachilari va ulardan keyin bolsheviklar duch kelgan mahalliy jamiyatlar an'ananing haqiqiy arxeotiplari kabi ko'rinar edi: ko'chmanchilar orasida urug'-aymoqchilik tuzilmalari (ba'zan qabilaviy aristokratiya bilan), o'troq aholi orasida esa patriarxal oila, mahalliy mustabidlar va Islom qat'iyatlari nazorati ostidagi hayot. Rossiya imperiyasining G'arbg'a nisbatan o'zini qanday idrok etishidagi har qanday ikkilanishlar, uning nigohi janubga – o'zining Sharqiga qaratilganda butunlay g'oyib bo'lar edi. Shunday qilib, Sovetlarning Markaziy Osiyodagi siyosati qoloq jamiyatlardagi shiddatli modernizatsiya jarayoni deb shubhasiz ta'riflanishi mumkin edi.

Ammo ikki xil qarama-qarshi diskursning birga mavjudligi bu masala yuzasidan yashirin bir bezovtalikdan dalolat berardi. Bir tomondan, Sovet siyosati yutuqlarining mafkuraviy tantanalari keskin taraqqiyot va tezkor ijtimoiy o'zgarishlar haqida so'zlar edi. Ikkinchi tomondan, sovet etnograflari mahalliy madaniyatlarning o'zgarmasligi, Sovet davlatining kirib borish qobiliyati nisbatan pastligi va mahalliy ijtimoiy modellarning barqarorligidan nolihsar edi. To'liq modernizatsiya yo'lidagi to'siqlar an'anaviylik yoki an'analarning sariqitlari tushunchalari bilan tavsiflangan. Ro'zg'or sohasi va ayniqsa, undagi ayollarning roli an'analarning saqlanib qolish o'chog'i sifatida alohida ko'rsatilgan – bu holat sotsialistik o'zgarishlar maqsadlariga ochiqdan-ochiq zid deb hisoblanar edi.

Men boshqa joyda ta'kidlaganimdek, agar an'anaviylik tushunchasi Markaziy Osiyoda g'oyat uzoq va sarmahsul faoliyat yuritgan bo'lsa, bu qisman Sovet tizimining o'zidan kelib chiqqan ba'zi oqibatlarini yashirishga xizmat qilganidir. Markaziy Osiyo respublikalariga xomashyo yetkazib beruvchi rolini yuklagan buyruqbozlik iqtisodiyoti bilan etnik/milliy mansublikni qotirib qo'ygan milliy siyosatning o'ziga xos uyg'unligi ko'plab paradoksal natijalarni berdi. Ushbu natijalar, men ko'rsatib berishga umid qilganimdek, yosh va gender ierarxiyalarini takror ishlab chiqaruvchi ijtimoiy tashkilot unsurlariga uzoqroq umr baxsh etdi. Quyida Sovet iqtisodiy, demografik va dinga qarshi siyosatining genderga oid ta'sirlarini ko'rib chiqaman va ularning ayollarni himoya qilish bo'yicha sotsialistik choralar bilan birlashishi Sovet paradoksini keltirib chiqarganini ilgari suraman: bu paradoks savodxonlik va mehnatda ishtirok etish darajasining yuqoriligi fonida tug'ilish darajasining yuqoriligi, katta oilalar va deyarli o'zgarmagan uy ichi mehnat taqsimotida namoyon bo'ladi. Bu konfiguratsiya maqolaning ikkinchi qismida taqdim etilgan post-sovet gender mafkuralari tahlili uchun g'oyat muhimdir.

Avvalo, Markaziy Osiyo respublikalarida etnik tabaqalanishning o'ziga xos va hujjatlashtirilgan namunalarini keltirib chiqargan buyruqbozlik iqtisodiyotining ijtimoiy va demografik oqibatlarini ko'rib chiqishimiz kerak. Slavyan/Yevropa millatlari asosan shahar joylarida va qishloq xo'jaligiga kirmaydigan kasblarda to'plangan bo'lsa, tub yerli millatlar qishloq joylarida, dehqonchilik va chorvachilik sohalarida haddan tashqari ko'p vakillikka ega bo'lishda davom etdilar. Bu mehnat taqsimoti Ittifoq respublikalari o'rtasida ham yaqqol ko'zga tashlanar edi. Markaziy Osiyo mamlakatlari sust sanoatlashgan edi va asosan

Yevropa hududlaridan kelgan ishchi kuchiga tayanar edi, bu esa ichki mehnat mobilligiga cheklangan ta'sir ko'rsatdi. Yevropadan oqim sekinlashganda, ko'plab sanoat tarmoqlari ishchi kuchi tanqisligiga duch keldi, biroq mahalliy qishloq aholisini o'ziga jalb qila olmadi. Haqiqatda, Markaziy Osiyoda har gektar yerga to'g'ri keladigan qishloq aholisi soni 1959 va 1970-yillar oralig'ida 25 foizga oshdi. 1989-yilda O'zbekistondagi etnik o'zbeklarning 70 foizi hali ham qishloq joylarida yashar edi.

Etnik tabaqalanishning oqibatlari tub yerli millatlarga mansub ayollar misolida yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan sotsialistik mamlakatlarda ayollar bandligi va tug'ilish darajasi bo'yicha o'tkazilgan qiyosiy tadqiqot beixtiyor Markaziy Osiyo modellarining o'ziga xosligini ko'rsatib berdi. O'zbekistonga alohida band bag'ishlash zarurati tug'ildi, chunki u o'rganilgan turli sotsialistik mamlakatlar orasida ta'lim va tug'ilish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik ish bermagan yagona holat edi. Bu yerda ayollarning ta'lim darajasi sanoatlashgan sotsialistik davlatlar bilan bir xil bo'lsa-da, tug'ilish ko'rsatkichlari global Janubning rivojlanayotgan mamlakatlari bilan ko'proq qiyoslanar edi. Markaziy Osiyodagi shahar/qishloq va kelgindi/tub yerli aholi o'rtasidagi bo'linish ayollarning demografik xulq-atvorida juda aniq aks etgan. 1959-yildan 1989-yilgacha Sovet O'zbekistonidagi etnik o'zbeklar soni 180,3 foizga oshdi – bu yuqori savodxonlik va modernizatsiya bilan bog'liq bo'lgan demografik kutishlarni butunlay rad etdi. 1988-yilga kelib, Markaziy Osiyo respublikalarida aholi o'sish sur'ati butun SSSR bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan uch baravar yuqori edi.

Sovet demografik siyosatining ushbu natijalarga qanday ta'sir ko'rsatganligi haqida o'ylashga arziydi. Sanoatlashgan respublikalarda tug'ilish kamayishining oldini olishga qaratilgan onalikni ijtimoiy burch sifatida targ'ib qilish g'oyasi Sovet ijtimoiy siyosatining barqaror mavzusi bo'lib qoldi. Ushbu pronatalistik (tug'ilishni rag'batlantiruvchi) va maternalistik (onalikni ulug'lovchi) siyosat asosan qishloq xo'jaligiga asoslangan Markaziy Osiyodagi ko'p farzandli oilalarga xos ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketdi. Markaziy Osiyolik ayollarning rekord darajadagi qismi Qahramon ona (10 va undan ortiq farzandi borlar uchun) va Onalik shon-shuhrati (7 dan 9 gacha farzandi borlar uchun) unvonlariga sazovor bo'lishdi. Bepul bolalar bog'chalari, maktab ta'limi, sog'liqni saqlash xizmatlari va tug'ruq ta'tillari kabi ijtimoiy ne'matlar ushbu tendensiyalarni yanada kuchaytirdi. Markaziy Osiyo ayollarining Sovet identifikatsiyasi davlat tomonidan taqdim etiladigan onalikni qo'llab-quvvatlovchi imtiyozlar va huquqlar kutuvi asosida kuchli shakllandi.

Faqat 1981-yilgi "Oila siyosati to'g'risida"gi qonun oldidan o'tkazilgan bahslardagina aholi o'sishidagi mintaqaviy tafovutlar haqidagi xavotirlar ochiq aytila boshlandi. Qabul qilingan siyosat tug'ilish yuqori bo'lgan hududlarda aholi o'sishini to'g'ridan-to'g'ri jilovlashni emas, balki tug'ilish past bo'lgan hududlarda ko'p farzandli oilalarni ko'proq rag'batlantirishni ko'zda tutardi. Shunga qaramay, aholi sonini nazorat qilish masalasi nihoyat siyosiy kun tartibiga kirdi. Haqiqatan

ham, 1980-yillarning oxiridagi oshkoralik davrida oilani rejalashtirish masalasi hissiyotlarga boy va yuqori darajada siyosiylashgan muammoga aylandi. Markaziy Osiyo matbuotida yangragan oilani rejalashtirishga qarshi chiqishlar ko'p farzandli oilalarni va ayollarning onalik rolini madaniy o'ziga xoslik va yaxlitlik ramzi sifatida taqdim etuvchi millatchilik ruhidagi qarashlarni ifodaladi.

Iqtisodiy sohada, Poliakovning fikricha, 1930-yillardagi kollektivlashtirish siyosati Rossiya mustamlakachiligi tomonidan rag'batlantirilgan agrar kapitalizm kurtaklarini to'xtatib qo'yish orqali Markaziy Osiyodagi an'anaviy ijtimoiy tashkilot shakllariga paradoks ravishda uzoqroq umr baxsh etdi. Roy ham shunga o'xshash paradoksni qayd etib, an'anaviy jamiyatni ijtimoiy muhandislik orqali yo'q qilish bo'yicha Sovet loyihasi, aslida, yangi Sovet institutlari doirasida an'anaviy birdamlik guruhlarining qayta tarkiblanishiga olib kelganini aytadi. Avlod (katta oila), mahalla (qo'shnichilik) va o'troqlashgan ko'chmanchilar orasida urug' tarmoqlari ba'zi hollarda kolxozlarning quyi bo'linmalari sifatida qayta tug'ildi. Bu kuzatuvlar kollektivlashtirish siyosati keltirib chiqargan ommaviy larzalar yoki insoniy musibatlar haqidagi bilimlarimizga zid emas. Biroq ular ushbu jarayonlarning modernizatsiya bilan bo'lgan munosabatini shubha ostiga qo'yadi.

Gender rollari sohasida kollektivlashtirish ayollarni ishlab chiqaruvchi sifatida ko'rishga va ularni sotsialistik mehnat kuchiga jalb qilishga qaratilgan yangi e'tiborni boshlab berdi. Musulmon ayollar o'rtasidagi ish, birinchi navbatda, ayollar ozodligini targ'ib qilishdan ko'ra, iqtisodiy rejalar bajarilishiga yo'naltirilgan edi; partiya nuqtai nazaridan bu ikki tushuncha sinonim edi. Ayollar ham zarbdor ishchi, ham qahramon ona bo'lishga chaqirilar edi. Ayollar mehnat unumdorligini oshirish, nazariy jihatdan, vaqtni ko'p oladigan uy-ro'zg'or ishlarini kamaytirishga bog'liq edi – bu va'dani mehnatni tejoychi qurilmalar, yetarli sharoitlar va qat'iy jinsiy mehnat taqsimoti bo'lmagan sharoitda bajarish deyarli imkonsiz edi. Shu sababli, ijtimoiy foydali mehnat qilish majburiyati Markaziy Osiyoning majburiy kolxoz qishloq xo'jaligi mehnati bilan band bo'lgan qishloq aholisi uchun og'ir yuk bo'lib tuyuldi. Lubinning 1970-yillardagi hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda ijtimoiy ishlab chiqarishdan tashqarida ishlaydiganlarning ko'pchiligi (mehnatga layoqatli aholining taxminan 12–15 foizi) ayollar bo'lgan va ish bilan band bo'lganlarning aksariyati, hatto ayollar ko'p bo'lgan sog'liqni saqlash sohasida ham past darajadagi ishlarda ishlagan.

Ayollarni ijtimoiy ishlab chiqarishga va o'quv dasturlariga jalb qilish harakatlariga qaramay, bu modellar saqlanib qoldi. Ayollar qisqaroq ish vaqti, uzoqroq ta'tillar va taqchil bo'lgan iste'mol tovarlariga osonroq kirish imkonini beruvchi, ya'ni uy yumushlari va tartibiga mos keladigan kasblarni aniq afzal ko'rardilar. Ayollarning traktor haydayotgan yoki og'ir texnikani boshqarayotgan an'anaviy bo'lmagan kasblardagi ramziy tasvirlari Markaziy Osiyodagi gender bo'yicha qat'iy tabaqalangan mehnat bozori haqiqatiga deyarli mos kelmas edi. Sovet Ittifoqining boshqa qismlaridan farqli o'laroq, bu yerda ayollar mehnatining hali foydalanilmagan ulkan zaxiralari mavjud edi.

Sovet Ittifoqida taqchil bo'lgan tovarlar va xizmatlarga erishish qiyinchiliklarini yumshatishda uy xo'jaligi iqtisodiyotining markaziy rolini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ayollarni ijtimoiy foydali mehnat uchun ozod qilish vositasi sifatida uy ishlarini ijtimoiylashtirish zarurligi haqidagi mafkuraviy da'volar fonida bu holat biroz kinoyali ko'rinadi. Masalan, Dragadzening Gruziya qishloqlari bo'yicha etnografik tadqiqoti qishloq aholisi Sovet tizimi taqdim etgan imkoniyatlarni maksimallashtirish va cheklovlarni minimallashtirish uchun o'zlarining oilaviy munosabatlari va keng qarindoshlik aloqalaridan qanday foydalanganini ko'rsatib berdi. Turmush strategiyalari oziq-ovqat yetarli bo'lishi (bozor ta'minoti ishonchsiz bo'lgan tizimda) va boshqa ehtiyojlar uchun maoshdan naqd pul bo'lishi o'rtasidagi oqilona muvozanatni saqlash uchun oila a'zolarini iqtisodiyotning turli sektorlariga taqsimlash atrofida qurilgan. Uy-joy ruxsatnomasi, mehmondo'stlik va qarzlar bo'yicha yordam olish uchun keng qarindoshlik tarmoqlariga tayanish o'ta shaxsiylashtirilgan minnatdorchilik va majburiyat tarmoqlari orqali amalga oshirilgan. Muallifning xulosasiga ko'ra, kollektivlashtirish oilaviy tuzilmalarni sezilarli darajada o'zgartiradigan sharoitlarni keltirib chiqarmadi va Sovet hayotining ko'plab xususiyatlari, aslida, oilaga yo'naltirilganlikni yanada oshirdi. Shunga o'xshash kuzatishlarni Hamfri ham Sibirdagi kolxoz misolida qayd etgan. Buyruqbozlik iqtisodiyotining mikro-darajadagi ishlash mexanizmlari va uni qayta ishlab chiqarishda gender mehnat taqsimotining markaziy o'rni Markaziy Osiyo jamiyatlarida an'anaviylik va Islomga doimiy havolalar orqali osongina yashirib kelindi.

Ijtimoiy mehnatga bo'lgan urg'u va ayni paytda zimmaga yuklatilgan og'ir uy-ro'zg'or majburiyatlari o'rtasidagi ko'plab ziddiyatlar hamda yuklar post-sovet feministlarining asarlaridagi yaqqol sezilib turadigan achchiq ohangni izohlaydi (garchi ular yalpi savodxonlik va ayollarning jamiyatdagi qonuniy ishtiroki kabi Sovet davri yutuqlarini e'tirof etsalar-da). Masalan, To'xtaxo'jayeva Hujum harakatini ayollarni uylaridan haydab chiqarib, paxta dalalariga surib chiqarishning muqaddimasi sifatida taqdim etadi.

Ushbu talablar natijasida yuzaga kelgan og'irliklar, 1980-yillardagi oshkoralik davrida shakllana boshlagan va Sovet davrigacha bo'lgan mehnat taqsimotiga nostalgik murojaat qilish an'anasining bir qismiga aylandi. Sovet Ittifoqi parchalanishidan oldingi va undan keyingi dastlabki yillarda paxtachilikning (hamda pestitsidlar va boshqa kimyoviy moddalarning haddan tashqari ko'p qo'llanilishining) ayollar salomatligi va atrof-muhitga ko'rsatgan ta'siri Sovet tuzumini tanqid qilish uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qildi.

Nihoyat, Sovetlarning Islomga qarshi kampaniyasi ham o'ziga xos gender xususiyatiga ega bo'lgan ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Ketma-ket o'tkazilgan dinga qarshi kampaniyalarning maqsadlaridan biri – bir tomondan, kichik hajmdagi oilaviy marosimlar va xalq amaliyotlari, ikkinchi tomondan esa, rasmiy diniy muassasalar obro'siga tayanadigan yoki dindorlikning ommaviy ko'rinishlari bo'lgan har qanday ibodat turlari o'rtasida aniq chegara o'rnatish edi. Rasmiy islomiy ta'lim va ibodatlar 1943-yilda tashkil etilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston

musulmonlari diniy boshqarmasi (SADUM) tomonidan qat'iy tartibga solinar edi; bu muassasadan ba'zan Sovuq urush davrida Sovet diplomatiyasining musulmon olamiga chiqish ko'prigi sifatida ham foydalanilgan.

Bu holat diniy amaliyotlarning tobora xususiylashishiga va ularning oilaviy doiraga siqib chiqarilishiga olib keldi. Sovetlashgan ommaviy soha va an'anaviy shaxsiy soha o'rtasidagi bu ikki bo'linish Islomning etnik-milliy mansublikning asosiy belgisiga aylanishini anglatar edi. Adib Xolid paradoksal tarzda shuni kuzatadiki, Markaziy Osiyodagi dinga qarshi kampaniya, aslida, XX asr davomida musulmon olamining boshqa qismlarida keskin hujumga uchragan urf-odat Islomining ayrim jihatlarini saqlab qolishga xizmat qilgan.

Ayollarning uy-ro'zg'or sohasi bilan uzviy bog'liqligi va ularning faoliyati erkaklarning ommaviy faoliyatiga nisbatan kamroq sinchkovlik bilan kuzatilgani, ularni mahalliy urf-odatlar hamda etnik/milliy o'zlikning asosiy qo'riqchilari maqomiga qo'ydi. Ayollar tomonidan amalga oshiriladigan geterodoks (norasmiy) amaliyotlar, masalan, nazr-niyoz marosimlari va avliyolar qabrlarini ziyorat qilish Sovet davrida ham davom etdi va bu sovet etnograflari tomonidan qayd etilgan. O'zbekistonda diniy marosimlar bo'yicha mutaxassis ayollar – otinoyilar qizlarga norasmiy diniy ta'lim berish, hayotning muhim bosqichlari (tug'ilish, nikoh va dafn marosimlari) hamda diniy bayramlar munosabati bilan o'tkaziladigan ayollar yig'inlarini boshqarish orqali islomiy bilimlarni saqlab qoldilar. Ritual hayot, jamoaviy ishtirok, ijtimoiylashuv va o'zaro yordam Markaziy Osiyo ayollarining kundalik hayotida uzviy birlashgan va bu holat hozir ham davom etmoqda.

Ushbu fonda, ayollar ozodligi haqidagi xabar ayollarning onalik va jamoat burchlarini bajarishda davlatdan yordam hamda imtiyozlar kutish tushunchasi bilan osonlikcha singib ketdi va tenglashtirildi. Bu kutuvlar ham Verderyning sotsializmning gender rejimi haqidagi umumiy kuzatishlariga (fuqarolik huquqlari o'rnini ijtimoiy himoya va davlat paternalizmi egallagan rejim), ham yuqorida muhokama qilingan Markaziy Osiyo jamiyatlarining xususiyatlariga mos keladi. Ayollarning tabiiy qismati haqidagi diskurslarning post-sovet davrida naqadar osonlik bilan o'z o'rniga tushib qolgani, ayollar ozodligi g'oyasining Markaziy Osiyodagi (ayniqsa, elita bo'lmagan) ayollar tomonidan qanday qabul qilingani va ichki dunyosiga aylantirilganini hisobga olsak, unchalik hayratlanarli bo'lmasligi mumkin.

Post-sovet erasida gender va millat

Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng mustaqil bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari o'z titul millatlarining gegemonligini mustahkamlashga qaratilgan til siyosati va qayta ko'rib chiqilgan milliy tarixdan tortib, voris rejimlar uchun yangi ikonografiyalargacha bo'lgan milliylashtirish siyosatiga kirishdilar. Milliy qadriyatlarining targ'ib qilinishi bevosita oila va gender munosabatlarini nishonga oldi. Bu faqat Markaziy Osiyoga xos hodisa emas edi, balki butun post-kommunistik dunyoda kuzatilgan keng ko'lamlı oqimlarni – Sovet uslubidagi

ozodlikni (emansipatsiyani) tanqid qiluvchi va an'anaviy oilalarga qaytishni targ'ib qiluvchi neo-familial (yangi oilaparastlik) mafkuralarni aks ettirar edi.

Markaziy Osiyoda Sovet merosining bunday qayta baholanishidan oldin, O'zbekistonda kech sovet davrida boshlangan va Sovet davlatining mafkuraviy monopoliyasi pasaygan qayta qurish davrida to'liq namoyon bo'lgan islomiy uyg'onish davri o'tdi. Din uchun yangi imkoniyatlar ulamolar (musulmon ruhoniylari) va ularning izdoshlari o'rtasida konservativ va ko'proq fundamentalistik oqimlar o'rtasidagi ajralish bilan yakunlandi. musulmon olami bilan aloqalarning kuchayishi ta'sirida, ba'zilar mahalliy urf-odatlariga nisbatan (ularni islomga zid deb qoralab) puristik pozitsiyani egalladilar va shariatning qat'iy talqiniga asoslangan turmush tarzini o'rnatishni talab qildilar. Ularning aqidaviy ixtiloflari qanday bo'lishidan qat'i nazar, gap ayollarning jamiyat va oiladagi o'rni haqida ketganda, konservatorlar ham, fundamentalistlar ham gender tengligi borasida bir xil salbiy qarashlarga ega edilar.

Lekin diniy otoritelerin va ularning radikal raqiblarining bayonotlaridan tashqari, mustaqillikdan keyingi davlatlarning o'zidan konservativ gender mafkuralarining keng tarqalgan va barqaror oqimi kela boshladi. Voris rejimlarning dunyoviy hukmdorlari o'zlari e'tiqodga sodiqligini namoyish etishga ishtiyoqmand edilar. Islom ulug'vor milliy merosning bir qismi sifatida ulug'landi va yetakchilar haj amallarini bajarish yoki Qur'on bilan qasamyod qilish orqali o'zlarining dindorligini namoyish etdilar. Masjid va madrasalarning jadal qurilishi milliy qayta tug'ilish ramzi bo'lib xizmat qildi.

O'zbekistonda islomiy jangarilik tuzum barqarorligini izdan chiqarishga qaratilgan ekstremistik guruhlar xavfi bilan bog'lana boshlagan vaqtga kelib, hukumat Islomning mahalliy (milliy va shuning uchun beozor) va xorijiy (transmilliy va shuning uchun xavfli) ko'rinishlarini bir-biridan ajratishga harakat qildi. Islomiy amallarga siyosiy ekstremizmning ehtimoliy belgisi sifatida yangicha e'tibor qaratilishi ayollarning paranji/hijob o'rashi masalasini (bu endilikda taqiqlangan edi) yana bir bor birinchi planga olib chiqdi. O'zbekiston hukumati bunga javoban maqbul milliy kiyim – yuzni ochiq qoldiradigan rang-barang ro'mol va ekstremizm yoki vahhobiylik (mintaqada keng qo'llaniladigan, ammo siyosiy yuklangan ibora) ifodasi deb hisoblanuvchi transmilliy hijob (yoki arabcha deb hisoblangan yot liboslar) o'rtasidagi chegaralarni nazorat qilishga urindi.

Diniy amaliyotni shakli va mazmuni jihatidan patriarxal bo'lgan yangi rasmiy milliy mafkuraga moslashtirish orqali jilovlashga urinish, dunyoviy va islomiy axloq hamda kutuvlar o'rtasidagi chegaralarni xira va noaniq qilib qo'yadi. Islom, shubhasiz, genderni tartibga solish uchun (o'z ichidagi qarama-qarshiliklarga qaramay) yanada izchilroq tizimni taklif etadi. Markaziy Osiyoda Islomning ta'siri ham g'oyalar, odamlar va resurslarning transmilliy aylanishi, ham quyi tabaqalarda yangi turmush tarzi va ma'no-mazmun izlash harakatlari orqali mustahkamlanib bormoqda. Islomning ijtimoiy sohadagi roli oshishi shuni anglatadiki, ayollarning o'zlari ham diniy e'tiqod va amaliyotning raqobatdosh talqinlari aylanishida

ishtirok etishlari hamda o'z turmush tarzi va imonlari borasida yangi, faol tanlovlar qilishlari mumkin.

Biroq post-sovet davlati tomonidan patriarxatning milliy madaniyat sifatida o'zlashtirilishini shunchaki jamiyatning qayta islomlashuvi bilan izohlab bo'lmaydi. Ittifoq parchalanganidan so'ng Markaziy Osiyo davlatlarining voris elitalari hech qanday jiddiy aksilsovet safarbarliklarisiz mustaqillikka erishdilar. Qirg'izistondan tashqari barcha respublikalarda Kommunistik partiya rahbarlari (allaqachon boshqaruvda bo'lganlar) hokimiyatda qoldilar. Shunga qaramay, ular mustamlaka merosini qoralashga asoslangan milliy mustaqillik mafkuralarini izlashga kirishdilar. Desovetizatsiyaning asosiy maydoni madaniyat sohasidan izlandi va madaniyatning yo'qolishi (ruslashtirish orqali) Sovet hukmronligining eng asosiy zararlaridan biri sifatida ko'rsatildi.

Bu diskursiv harakat, ayniqsa, O'zbekistonda yaqqol ko'zga tashlandi: bu yerda davlat elitalari manfaatlariga xizmat qilgan Sovet buyruqbozlik iqtisodiyoti va boshqaruv tuzilmalari saqlab qolindi (bozor va demokratik islohotlar yo'nalishida faqat ramziy qadamlar qo'yildi). Sovet davrining salbiy asoratlari sifatida jamoat mulki rejimlari yoki avtoritar boshqaruv emas, balki til, urf-odat va din sohasidagi aralashuvlar bilan bog'liq milliy madaniyatning bostirilishi ko'rildi. Sovet tizimining g'ayritabiiyligi ayollardan bajarish so'ralgan tabiiy bo'lmagan vazifalar va gender ierarxiasini buzishga bo'lgan urinishlar misolida yaqqol ko'rsatildi. Mahalliy dunyoviy matbuotda ayollarni o'zlarining tabiiy qismatiga mos keladigan rollarga qaytarish haqidagi chaqiriqlar tarqala boshladi va bu hech qanday ochiq e'tirozga sabab bo'lmadi.

Ijtimoiy nafaqalarni taqsimlashda yalpi ijtimoiy ta'minot o'rnini muhtojlarga maqsadli yordam ko'rsatish bilan almashtirgan mahalla qo'mitalari ajrashgan ayollar va yolg'iz onalarni kamsitayotgandek ko'rindi. Bu esa davlat organlarining an'anaviy gender normalarini majburlashda tobora tartibga soluvchi rol o'ynayotganidan dalolat berdi. Sovet davridagi "Xotin-qizlar kengashi"ning vorisi bo'lgan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, xarakterli jihati shundaki, 1998-yildan buyon har yili televizion "Eng yaxshi kelin" ko'rik-tanlovlarini o'tkaza boshladi. Unda ishtirokchilarning itoatkorlik, onalik g'amxo'rliqi va uy ishlarini mohirona bajarish kabi fazilatlarini ulug'landi. Oila yili deb e'lon qilingan 2000-yil esa yoshi ulug'larga hurmat hamda an'anaviy yosh va gender ierarxiasini markaziy o'zbek qadriyatlari sifatida ko'klarga ko'tardi.

Milliy o'zlik belgilarining ongli ravishda manipulyatsiya qilinishini an'analarning qayta tiklanishi deb taqdim etish – noto'g'ri tushuncha bo'lib, u hozirgi o'zgarishlarni tushunishga deyarli yordam bermaydi. An'anaviylikni qayta tiklash haqida gapirayotgan bir paytda, voris elitalar aslida post-sovet jamiyatining tubdan o'zgarishiga rahbarlik qilmoqdalar. Bu o'zgarishlar qatoriga yangi boylar va yangi kambag'allar o'rtasidagi boylik tafovutining tez sur'atlar bilan o'sib borishi, keng tarqalgan korrupsiya, ijtimoiy himoya tizimlarining emirilishi hamda ichki va tashqi migratsiya va urbanizatsiya sur'atlarining oshishini kiritish mumkin. Ayollar

peddlarchilik (ko'cha savdosi) va transchegaraviy savdo-sotiqdan tortib, jinsiy xizmatlar ko'rsatishgacha bo'lgan kengayib borayotgan norasmiy iqtisodiyot saflarini to'ldirmoqdalar.

Qonuniy bo'lmasa-da, tobora keng tarqalayotgan ko'pxotinli ittifoqlarning ko'payishi islomiy odob-axloqqa qaytishdan ko'ra ko'proq yangi orttirilgan boylik imtiyozlaridan foydalanishga intilish bilan bog'liqdek ko'rinadi. Ayollarning himoyasizligining yangi modellari ularni ko'pxotinli nikohlardan boshpana yoki jinsiy savdodan tirikchilik manbai izlashga majbur qilmoqda – buni hech qaysi ma'noda mahalliy an'ana namunasi deb atab bo'lmaydi. Kinoyali jihati shundaki, aynan an'anaviy qadriyatlar haqida ko'p gapirilayotgan bir paytda, sovet davrida (garchi o'zgargan shaklda bo'lsa-da) saqlanib qolgan jamoaviy birdamlikning moddiy asoslari hozirda jiddiy sinovdan o'tmoqda.

Shu sababli, tushuntirishlarni qayta tiklangan an'analar sohasidan emas, balki post-sovet gender rejimlarini shakllantiruvchi omillarni tushunishdan izlash kerak. Sovet Ittifoqida ayollar huquqlari va imtiyozlari sotsialistik paternalizmga (davlat otaligiga) asoslangan ijtimoiy shartnomaning ajralmas qismi edi. Post-sovet o'tish davri davlatning ayollarni ona va ishchi sifatida qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy ne'matlarni taqdim etishdan va bu huquqlarning asosi bo'lgan mafkuraviy paketdan chekinishiga olib keldi. Bu o'zgarishlarning oqibatlarlari – ayollarning siyosiy vakilligining keskin kamayishi, ayollar o'rtasidagi ishsizlikning nomutanosib darajasi va ishlaydigan ayollarga yordam beruvchi ijtimoiy nafaqalarning bekor qilinishi – ko'plab hujjatlarda o'z aksini topgan.

Markaziy Osiyo jamiyatlarining o'ziga xosligi (agar u mavjud bo'lsa) erkaklar imtiyozlarining milliy madaniyatning bir qismi sifatida rasmiy ravishda qayta tiklanishida ko'rinadi. Qirg'izistonda ko'pxotinlilikni dekriminalizatsiya qilish (jinoiy javobgarlikdan chiqarish) masalasi parlamentda bir necha bor muhokama qilindi. Qozog'istonda ayollar roziligisiz amalga oshiriladigan kelin o'g'irlash holatlarining ko'payishini Verner davlatning gender masalalaridan chekinishi va davlat tomonidan targ'ib qilinayotgan qozoq milliy an'analariga nisbatan yangicha ijtimoiy qarashlar bilan izohlaydi. Uolbi tomonidan ilgari surilgan shaxsiy va ommaviy patriarxat o'rtasidagi farqni eslatuvchi argumentda Kamp shuni ta'kidlaydiki, Sovet davlati ayollar foydasiga aralashish qobiliyatiga ega edi va davlat paternalizmi ilgari cheklanmagan shaxsiy patriarxal hokimiyatning o'rnini egallagan edi. Akiner ham Sovet rejimi davrida siyosiy jihatdan noto'g'ri deb hisoblanib, odatda jilovlab kelingan erkak ustunligi (supremasiyasi) ifodalarida endilikda hech qanday tiyilish qolmaganini qayd etadi.

Biroq Sovet davlatining tugatilishi (garchi post-sovet Markaziy Osiyosida sovet davri kadrlarining ajoyib davomiyligi kuzatilsa-da) o'z-o'zidan gender diskurslarining o'zgarishini va an'anaviy gender normalariga nisbatan keng tarqalgan itoatkorlikni to'liq tushuntirib bera olmaydi. Men ushbu hodisalarni Markaziy Osiyodagi Sovet merosi va uning post-sovet o'tish davri kontekstida namoyon bo'lishi orqali yaxshiroq tushunish mumkin deb hisoblayman. Garchi

Sovet siyosati ayollarning ta'lim olishi va ijtimoiy rollari uchun yangi imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, u zamonaviylikka xos bo'lgan kasbiy va fazoviy mobillik hamda o'zlikni shakllantirish jarayonlarini to'xtatib qo'ydi.

Bundan tashqari, Sovet modernizatsiyasi madaniyatsizlashuv (dekulturatsiya) degan keng tarqalgan taxminlarga qaramay, aynan Markaziy Osiyo aholisining o'zlarining sovetcha fikrlash va harakat qilish odatlariga sof mahalliy madaniy mazmunni singdira olish qobiliyati ularning o'zliklarining turli qirralariga barqarorlik baxsh etdi. Sovet siyosati, aslida, an'ana ifodalariga nisbatan juda ikkilangan edi. Mahalliy an'analar ba'zi ko'rinishlarida etnik mansublikning qonuniy ifodasi sifatida ulug'langan bo'lsa, boshqa holatlarda qoloqlik yoki hatto norozilik belgisi sifatida qoralangan.

Ushbu qarama-qarshi bayonotlar va aralashuvlar markazida bo'lgan aholi o'z turmush tarziga qaratilgan siyosiy kampaniyalarning kuchayishi va yumshashi davrlaridan omon chiqishning o'ta nozik mahoratini shakllantirdilar. Moslashuv va hamda tizimni ichkaridan buzish (subversiya) jarayonlari murakkab natijalarga olib keldi. Bu natijalar bir vaqtning o'zida ham Sovet siyosatining Markaziy Osiyoda mutloq muvaffaqiyatsizlikka uchrangani haqidagi da'volarni, ham uning mahalliy institutlarni o'zgartirish yoki yo'q qilishdagi ulkan samaradorligini tushunishga yordam beradi.

